

GLOBALASHUV JARAYONLARIDA FALSAFANI O'RNI**Tolipov Xushnudbek***Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va
huquq ta'lifi kafedrasini o'qituvchisi*

Anatatsiya: Ushbu maqolada globalashuv jarayonining jamiyat, tafakkur va ma'naviyatga ko'rsatgan ta'siri falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Globalashuv – bu faqat iqtisodiy yoki texnologik hodisa emas, balki insoniyat tafakkurining yangi bosqichga o'tishini talab qiladigan murakkab falsafiy jarayondir. Falsafa esa bu jarayonda yo'nalish beruvchi ichki kompas, jamiyatlar va shaxslar uchun qadriyatlar mezoni sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada falsafaning globalashuv davridagi vazifalari, insoniyatning umumiyligi ruhiy holatini anglashdagi ro'li va yangi dunyoqarashlar shakllanishiga qo'shayotgan hissasi chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, mahalliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtaqidagi muvozanatni saqlashda falsafaning ahamiyati alohida o'rinni tutadi.

Abstract: This article analyzes the impact of the globalization process on society, thought, and spirituality from a philosophical perspective. Globalization is not just an economic or technological phenomenon, but a complex philosophical process that requires a transition to a new stage of human thought. Philosophy, in this process, appears as an internal compass that provides direction, a criterion of values for societies and individuals. The article deeply analyzes the tasks of philosophy in the era of globalization, its role in understanding the general spiritual state of humanity, and its contribution to the formation of new worldviews. Also, the importance of philosophy in maintaining a balance between local and universal values is of particular importance.

Аннотация: В статье анализируется влияние процесса глобализации на общество, мышление и духовность с философской точки зрения. Глобализация — это не просто экономическое или технологическое явление, а сложный философский процесс, требующий перехода человеческого мышления на новый уровень. Философия в этом процессе выступает как внутренний компас, дающий направление, критерий ценностей для общества и личности. В статье дается глубокий анализ задач философии в эпоху глобализации, ее роли в понимании общего духовного состояния человечества, ее вклада в формирование новых мировоззрений. Философия также играет особую роль в поддержании баланса между локальными и общечеловеческими ценностями.

Kalit so'zlar: globalashuv, transmilliy, mintaqaviylashtirish, texnologiya, integratsiya, raqamli iqtisodiyit, evolutsiya, virtual, xalqaro, Orol, infratuzilma.

Keywords: globalization, transnational, regionalization, technology, integration, digital economy, evolution, virtual, international, Aral, infrastructure.

Ключевые слова: глобализация, транснациональный, регионализация, технологии, интеграция, цифровая экономика, эволюция, виртуальный, международный, Арал, инфраструктура.

Kirish: Globallashuv – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bog‘langan milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini o‘zgartirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Transmilliyashtirish va mintaqaviylashtirish asosida iqtisodiyotning chambarchas bog‘liqligi hisoblanadi. Shu asosida yagona jahon tarmog‘i, bozor iqtisodiyoti, va uning infratuzilmalari shakllanmoqda, ko‘p asrlar davomida xalqaro munosabatlarning asosiy xarakteri bo‘lib kelgan davlat suvereniteti ta’sirining pasayishi sodir bo‘lmoqda. Globallashuv jarayoni bu davlat tomonidan shakllantirilgan bozor tizimlari evolyutsiyasining natijasidir.

Bugungi zamon – bu tezlik, texnologiya va o‘zgarishlar asri. Yer yuzining eng chekka nuqtalarida yashayotgan insonlar ham endi bir-biriga begona emas, aksincha, virtual olamlar, umumiylar maydonlari va yagona qadriyatlar oqimida birlashib bormoqda. Globallashuv – bu shunchaki iqtisodiy integratsiya yoki texnologik yutuq emas, bu insoniyat tafakkurining yangi shakllanishi, qadimiy savollarga zamonaviy javob izlash zaruratidir. Aynan mana shu nuqtada falsafa, insoniyat tafakkurining chuqur ildizlariga suyanib, kelajakka yo‘l ochuvchi nurdek namoyon bo‘ladi. Ushbu mavzuni tanlashimga sabab – globallashuv fanida qadriyatlar almashinushi, madaniy qarama-qarshiliklar va ma’naviy bo‘shliqlar kuchayib borayotgan bir paytda, falsafa bu jarayonga qanday munosabat bildirayotgani, qanday yo‘l ko‘rsata olayotgani masalasiga javob topish istagidir. Chunki falsafa – bu o‘tmish saboqlari va kelajak mas’uliyatini birlashtiruvchi ko‘prikdir.

Asosiy qisim: Falsafa nafaqat insonning azaliy muammolari va qayg‘ularini, balki uning keyingi yillarda fan-texnika rivoji ta’sirida toboro tezroq sur’atlarda, shu jumladan dunyo miqyosida o‘zgarayotgan real hayoti kundalik amaliyotini ham aks ettiradi. Bugun dunyo, g‘oyo bo‘shashgan kamon- bir chetidan tortilsa, narigi tomoni titraydi. Har bir voqeа bir - biriga bog‘liq, har bir so‘z har yurakda aks sado beradi. Globallashuv-bu faqat texnika taraqqiyoti emas, bu qalblarning, fikrlarning yashirin zamiridagi ziddiyatli raqsi. Mana shunday murakkab zaminda falsafa-najotkor farishtadek yordamga keladi. Falsafa-bu axborotning selida g‘arq bo‘lish emas, balki sukunatda haqiqatni ilg‘ashdir. U globallashuv deb atalgan bu gumbazli tizimning ichida insoniylikning so‘ngi darvozabonidir. U bizga “nega?” degan savolni eslatadi, o‘chib ketayotgan savollar izidan, har kim nima demoqda, ammo falsafa faqatgina “nega” deydi. Shunday savol bugungi kunda zarur, u texnologik tafakkurni insonga xizmat qilishga yo‘naltiradi. Bugun sun’iy ong, raqamli iqtisodiyot va metokoinot kabi tushunchalar odam ongini noto‘g‘ri yo‘llarga boshlayotganda, falsafa bu ongni to‘g‘ri

yo‘llarga yo‘naltiradi. U bizni axborotdan to‘g‘ri foydalanishga yangi ma’lumotlar olishga , yangi qirralarni kashf qilishga, yetaklaydi. Falsafa globallashuv jarayonida milliylikning, qadimiy merosning, urf-odatlarning, an‘analarning saqlashga yordam beruvchi jarayon hisoblanadi. Falsafaning globallashuvdagи o‘rni- bu insonning yo‘qolib ketayotgan ichki makonini tiklashda, e’tiqod va ruhiyatning nozik arqonini ushlab turishda yordam beruvchi katta kuch. Globallashuvning serqirraligi o‘z ichiga, ayrim kishilarning xavfsizligidan boshlab, mamlakatlar, hududlar, mintaqalar va butun yer shari tinchligini ta’minlash, shuningdek turli ziddiyatlar va qarama-qarshilik oldini olish, zarur bo‘lganda ularni bartaraf etishda qatnashish, ekotizm barqarorligini saqlash, oziq-ovqat, energiya va xomashyo taqchilligiga yo‘l qo‘ymaslik, yangi texnologiyalarga o‘tish, har qanday sharoitda ham xalqaro institutsional boshqaruv tamoyillariga amal qilishni o‘z ichiga oladi. Xavfsizlikning muhim qirralaridan biri, xalqaro miqyosda zo‘ravonlik va jinoyatchilikni oldini olishdir. Hozirgi kunda global muammolar ham kuchayib bormoqda. Bunga misol qilib Orol bo‘yi muammozi, zavodlardan chiqayotgan zararli tutunlar, atrof muhit ifloslanishi kabi ko‘plab muammolarni olishimiz mumkin. Bularni oldini olish uchun mamlakatimizda ham ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda, shulardan orolbo‘yi hududini ekologik tiklash loyihalari, Xalqaro hamkorlik va tashabbuslar, ijtimoiy va iqtisodiy tiklash islohotlari, ilmiy tatqiqotlar va monitoring kabi tashabbuslar tatbiq qilinmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda globallashuv va falsafa yonma-yon ravishda keng va chuqur mazmun kasb etadi. Globallashuv insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida dunyo xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirayotgan, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni o‘zaro bog‘lab borayotgan qaltis hodisadir. Bunda falsafaning o‘rni beqiyosdir. Falsafa inson tafakkurini, o‘y fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltiruvchi holatdir. Maqolada globallashuv va falsafa keng va chuqur yoritilgan. Globallashayotgan davrda ko‘pchilik inson noto‘g‘ri oqimga kirib ketishi, axborotlardan noto‘g‘ri foydalanishi mumkin buning oldini olishda albatta falsafa yordamga keladi. Zero, falsafiy qarashlar orqali inson o‘zligini anglaydi xalq esa taraqqiyot sari dadil odimlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Globallashuv asoslari fanidan o‘quv uslubiy majmua. Andijon 2024
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2023
3. Falsafa asoslari. Toshkent 2005
4. <https://arxiv.uz>
5. <https://oyina.uz>